

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankida “TrastPay” mobil-ilovasi orqali
pul mablag‘ini milliy valyutadagi «Onlayn-Universal» muddatli
onlayn-omonatga joylashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha
ELEKTRON OFERTA**

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining bank xizmatlari ofisi (keyingi o‘rinlarda – Bank), bir tarafdin, va Bank yoki boshqa tijorat banki tomonidan muomalaga chiqarilgan bank kartasining egasi bo‘lgan hamda quyida taklif qilinayotgan Elektron oferta shartlarini to‘laligicha va so‘zsiz qabul qilishini elektron shaklda akseptlash orqali bildirgan jismoniy shaxs (keyingi o‘rinlarda – Omonatchi), ikkinchi tarafdin, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367, 369 va 370-moddalariga muvofiq quyidagilar haqida mazkur Elektron ofertani tuzdik.

1-§. Elektron oferta predmeti

1. Omonatchi Elektron ofertani akseptlagandan so‘ng, bank kartasi hisobvarag‘idagi pul mablag‘ini “TrastPay” mobil-ilovasi vositasida «Onlayn-Universal» muddatli onlayn-omonatga (keyingi o‘rinlarda – onlayn-omonat) o‘tkazadi.

2. Bank Elektron ofertaga asosan Omonatchi tomonidan o‘tkazilgan pul mablag‘ini onlayn-omonatga qabul qiladi, unga foiz hisoblaydi va muddati tugaganda uni qaytaradi hamda Omonatchining mazkur onlayn-omonat hisobvarag‘ini masofadan turib boshqarishiga ruxsat beradi.

2-§. Elektron ofertani akseptlash tartibi

3. Omonatchi pul mablag‘ini onlayn-omonatga joylashtirsa, bu Omonatchining Bank tomonidan taklif etilgan onlayn-omonat va ushbu Elektron oferta shartlariga hamda pul mablag‘ini onlayn-omonatga joylashtirish xizmatini ko‘rsatish qoidalariga roziligini bildiradi.

4. Onlayn-omonat va ushbu Elektron oferta shartlari ma‘qul kelmasa, Omonatchi “TrastPay” mobil-ilovasi orqali pul mablag‘ini onlayn-omonatga joylashtirishdan voz kechishini bildiradi.

5. Omonatchiga onlayn-omonatning ochilishi va unga Omonatchining pul mablag‘i joylashtirilishi ushbu Elektron ofertaning akseptlanganligini bildiradi. Omonatchining pul mablag‘i onlayn-omonatga joylashtirilgan paytdan boshlab ushbu Elektron oferta tuzilgan hisoblanadi.

3-§. Onlayn-omonat shartlari va hisob-kitoblar tartibi

6. Onlayn-omonatning minimal qiymati: 500 000 (besh yuz ming) so‘m.

7. Onlayn-omonatning muddati: 24 oy.

8. Onlayn-omonatning foiz stavkasi: yillik 20 (yigirma) foiz.

9. Onlayn-omonatga dastlabki 12 oy davomida qo‘shimcha badal kiritilishi mumkin.

10. Onlayn-omonat muddati davomida omonatning bir qismini olish ko‘zda tutilgan. Bunda ushbu omonatdagi mablag‘ qoldig‘i 1 000 000 (bir million) so‘mdan kam bo‘lmasligi lozim.

11. Jalb qilingan onlayn-omonat bo‘yicha foiz stavkasi uning muddati tugagunga qadar o‘zgarmaydi.

12. Onlayn-omonat bo‘yicha foiz ushbu omonat Bankka qabul qilingan kunning keyingi sanasidan boshlab onlayn-omonatni Omonatchiga qaytariladigan kungacha hisoblanadi.

Omonatchining onlayn-omonat hisobvarag‘i xatlanganligi oqibatida Bank onlayn-omonatdagi pul mablag‘idan foydalana olmagan davr uchun foiz hisoblanmaydi.

13. Onlayn-omonat bo‘yicha foiz har oyda, ushbu omonat qabul qilingan kundan keyin, to‘lanadi.

Onlayn-omonat bo‘yicha hisoblangan foiz Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag‘iga (20206000) avtomat tarzda o‘tkazib beriladi.

Agar omonatchi O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lsa, uning omonati bo'yicha to'lanadigan foiz (daromad) qiymatidan 10% miqdorda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 382-moddasiga muvofiq soliq ushlab qolinadi.

14. Onlayn-omonatning muddati tugagandan so'ng onlayn-omonatdagi mablag' Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag'iga (20206000) avtomat tarzda o'tkazish orqali, Omonatchiga qaytariladi.

15. Omonatchi onlayn-omonatni muddati tugamasdan to'liq qaytarmoqchi bo'lsa, u bu haqda Bankni ushbu omonatni olishni mo'ljallagan sanadan kamida bir oy oldin ogohlantiradi. Bunda Elektron ofertaning amal qilishi to'xtatiladi, onlayn-omonat muddatidan oldin qaytariladi va onlayn-omonatga hisoblangan foiz quyidagi shartlar asosida to'liq turgan oy uchun to'landi:

a) onlayn-omonat 3 oygacha bo'lgan muddat davomida turgan bo'lsa, hisoblangan foiz to'lanmaydi;

b) onlayn-omonat 3 oydan 6 oygacha saqlangan bo'lsa, yillik 14 (o'n to'rt) foiz;

d) onlayn-omonat 6 oydan 12 oygacha saqlangan bo'lsa, yillik 16 (o'n olti) foiz;

e) onlayn-omonat 12 oydan 18 oygacha saqlangan bo'lsa, yillik 17 (o'n etti) foiz;

f) onlayn-omonat 18 oydan 24 oygacha saqlangan bo'lsa, yillik 18 (o'n sakkiz) foiz.

Bunda onlayn-omonat mablag'idan oldin to'lab berilgan foiz bilan hisoblangan foiz o'rtasidagi farq ushlab qolinadi.

16. Onlayn-omonat hisobvarag'idan mablag' Bank tomonidan quyidagi hollarda Omonatchi topshirig'isiz hisobdan chiqariladi:

a) vakolatli davlat organining qaroriga asosan;

b) Omonatchining kredit va unga tenglashtirilgan boshqa majburiyatlar bo'yicha qarzdorligi, sudning qaroriga muvofiq, so'ndirilganda.

17. Onlayn-omonatning muddati tugagandan so'ng ushbu Elektron oferta muddatini uzaytirish ko'zda tutilmagan.

4-§. Taraflarning huquq va majburiyatlari

18. Bankning huquqlari:

a) Omonatchining talabi bilan onlayn-omonat muddatidan oldin to'liq qaytarilganda, ushbu Elektron ofertaning 15-bandiga muvofiq, Omonatchi bilan qayta hisob-kitob qilishni amalga oshirish;

b) Omonatchining onlayn-omonat hisobvarag'i O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda xatlanganda, ushbu hisobvara orqali chiqim amaliyotlarini bajarishni to'xtatish;

d) Omonatchining onlayn-omonat hisobvarag'idan boshqa tijorat bankining bank kartasiga pul mablag'i o'tkazilganda Bank tariflariga ko'ra vositachilik haqi undirish.

e) Omonatchi O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lsa, uning onlayn-omonati bo'yicha to'lanadigan foiz (daromad) qiymatidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 382-moddasiga muvofiq 10% miqdorida soliq undirish.

19. Bankning majburiyatlari:

a) Omonatchi onlayn-omonatni muddati tugamasdan qaytarishni talab qilganda, uni ushbu Elektron ofertaning 15-bandiga muvofiq, muddatidan oldin qaytarib berish;

b) onlayn-omonatga oid bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar sir saqlanishini ta'minlash;

d) Omonatchining onlayn-omonat hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlar Bank tomonidan to'xtatib qo'yilganda, amaliyot to'xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Omonatchiga uning onlayn-omonat hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi va uning sababi yuzasidan xabarnoma yuborish;

e) Omonatchining kredit va mikroqarz bo'yicha qarzdorligini so'ndirish uchun uning onlayn-omonat hisobvarag'idan mablag' Bank tomonidan Omonatchining topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda, mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda Omonatchiga uning onlayn-omonat hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sababga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda xabarnoma yuborish.

20. Omonatchining huquqlari:

- a) ushbu Elektron ofertani akseptlash bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish;
- b) mazkur Elektron oferta shartlari doirasida onlayn-omonatni mustaqil tasarruf etish va masofadan turib boshqarish.

21. Omonatchining majburiyatlari:

- a) ushbu Elektron oferta shartlari bilan tanishish;
- b) bank kartasi hisobvarag'ida onlayn-omonat ochish uchun yetarli miqdorda pul mablag'iga ega bo'lish;
- d) oferta omonati hisobvarag'idan amaliyotlarni amalga oshirish jarayonida "TrastPay" mobil-ilovasidagi uzilishlar yoki texnik nosozliklar haqida Bankka telefon orqali xabar berish;
- e) "TrastPay" mobil-ilovasiga kirish uchun berilgan login, parol va SHIR-kodni uchinchi shaxsga oshkor qilmaslik.

5-§. Taraflarning javobgarligi

22. Taraflar mazkur Elektron oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

6-§. Fors-major holatlar

23. Taraflar fors-major holatlar amal qilgan davrda Elektron oferta bo'yicha o'z majburiyatlarining qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun javob bermaydilar.

Fors-major holatlarga quyidagilar kiradi: tabiiy hodisalar (zilzila, ko'chki, dovul, qurg'oqchilik va sug'urta shartnomasida sanab o'tilmagan boshqa tabiiy hodisalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (harbiy harakatlar, ish tashlashlar, qamallar, davlat tashkilotlarining hamda davlat tashkilotlari o'rtasidagi cheklovchi va taqiqlovchi choralar, shuningdek Hukumat qarorlari va boshqalar) oqibatida kelib chiqqan favqulodda, joriy sharoitda bartaraf etib bo'lmaydigan va oldindan kutilmagan vaziyatlar, agar ushbu vaziyatlar omonat shartnomasini bajarishga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa.

Fors-major holatlar yuzaga kelganda va to'xtaganda taraflar bir-birini xabardor qiladilar. Xabarnoma taraflarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin (SMS va MMS xabarlarini bundan mustasno).

Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda majburiyatlarni bajarish muddatini taraflar fors-major holatlar amal qilgan davrga mutanosib tarzda kechiktiradilar.

7-§. Boshqa shartlar

24. Omonatchi o'tkazgan pul mablag'i Bankdagi onlayn-omonat hisobvarag'iga naqd pulsiz ko'rinishida kelib tushgan kundan boshlab Elektron oferta tuzilgan hisoblanadi.

25. Mazkur Elektron oferta 19-bandining "d" va "e" kichik bandlarida nazarda tutilgan xabarnomalar Omonatchiga uning mobil telefoniga telegram kanali orqali jo'natish orqali topshiriladi.

26. Bank mazkur Elektron oferta shartlariga Omonatchining huquq va qonuniy manfaatiga daxl qiladigan o'zgartirishlarni bir tomonlama kiritishga haqli emas.

27. "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga (2025-yil 18-fevraldagi O'RQ-1031) muvofiq jismoniy shaxslarning omonatlari kafolatlarga bo'ysunadi. Kafolatlangan hodisa yuz bergan taqdirda, omonatchi bitta bankdan qonun bilan belgilangan quyidagi miqdorlarda kompensatsiya olish huquqiga ega:

- a) agar uning miqdori ikki yuz million so'm yoki undan kam bo'lsa, kafolatlangan aktivning to'liq qoldig'i;

- b) kafolatlangan aktivning qoldig'i ikki yuz million so'mdan oshsa, ikki yuz million so'm.

28. Mazkur Elektron ofertada nazarda tutilmagan barcha holatlar uchun O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari normalari qo'llaniladi.

29. Taraflar barcha nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadi.

Taraflar omonat shartnomasi bilan bog'liq bo'lgan, muzokara yo'li bilan hal qilish mumkin bo'lmagan nizolarni Bank (bank xizmatlari ofisi) joylashgan joydagi tegishli sudda ko'rib chiqishga kelishib oldilar.